

**MAHSULOT YETKAZIB BERISH TO'G'RSIDA
SHARTNOMA № 16**

Toshkent viloyati

«26» 04 2022 yil

OOO "AMAL PHARM DS" mas'uliyati cheklangan jamiyati bundan buyon matnda "**Mahsulot yetkazib beruvchi**" deb nomlanuvchi, Nizom asosida ish yurituvchi Bosh direktori **Fayziyeva S.Q.** bir tomondan bundan buyon matnda "**Buyurtmachi**" deb nomlanuvchi **Zangiota tuman tibbiyot birlashmasi** nomidan Nizom asosida ish yurituvchi raxbar **K.L.Raximov** ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. Ushbu shartnoma shartlariga asosan "Mahsulot yetkazib beruvchi" spetsifikatsiyada ko'rsatilgan tovarni "Buyurtmachi"ga yetkazib beradi, "Buyurtmachi" esa qabul qilib olgan tovarning haqini "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning bankidagi tegishli hisob-raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Shartnoma spetsifikatsiyasi:

№	Mahsulot nomi	O'/b	Miqdori	Narxi (QQSsiz)	QQS		Umumiy qiymati QQS siz
					15%	Summa	
1	Natriy gipoxlorit 12%	kg	1000	6000.00	0%	0	6 000 000,00
2	Perikis vodorod 33%	Kg	200	14000.00	0%	0	2 800 000,00
Umumiy summa:							8 800 000,00

1.3. Ushbu shartnomaning umumiy qiymati: **8 800 000.00 (sakkiz million sakkiz yuz ming so'm)** so'mni tashkil kiladi. QQS siz.

1.4. "Mahsulot yetkazib beruvchi" "Buyurtmachi"ga shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan ro'yxat (spesifikatsiya) asosida va belgilangan muddatda tovarlarni yetkazib beradi. "Buyurtmachi" esa qabul qilib olgan tovarlarning haqini "Mahsulot yetkazib beruvchi"ning bankidagi tegishli hisob-raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berishni o'z zimmasiga oladi.

II. MAXSULOTNING SIFATI

2.1. "Mahsulot yetkazib beruvchi" "Buyurtmachi"ga O'zbekiston Respublikasida Farmakologik ro'yxatdan o'tgan, tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan, sifat, markirovka va o'ramlari farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan, dori vositalari, tibbiy buyumlarini va boshqa tovarlarni yetkazib beradi.

III. TO'LOV SHARTLARI

3.1. "Buyurtmachi" "Mahsulot yetkazib beruvchi"ga shartnoma imzolaniib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi ro'yxatidan o'tgandan so'ng 10 kun mobaynida shartnoma umumiy summasining 30% miqdorida oldindan to'lovni amalga oshiradi.

3.2. Oldindan pul o'tkazilgandan so'ng, tovarlar 5 kun mobaynida yetkazib beriladi. "Buyurtmachi" hisob-faktura orqali qabul qilib olingan mahsulotning qolgan 70% to'lovini 30 kun ichida o'tkazib beradi.

IV. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, 1998 yil 29 avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi 670-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Mazkur shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun "Buyurtmachi" "Mahsulot yetkazib beruvchi"ga kechiktirilgan har bir kun uchun o'z vaqtida to'lanmagan summaning 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi kechiktirilgan to'lov summasi qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

4.2. Penya to'lanishi "Buyurtmachi"ni shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

4.3. "Mahsulot yetkazib beruvchi" mahsulot yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun "Buyurtmachi"ga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun yetkazib berilmagan mahsulot summasining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan mahsulot va ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

4.4. Penya to'lash "Mahsulot yetkazib beruvchi"ni mahsulot yetkazib berishni kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

4.5. Shartnomani 2-bandiga asosan "Mahsulot yetkazib beruvchi" tomonidan sotilgan mahsulot sifatsizligi tegishli hujjatlar bilan 3 kun ichida tasdiqlansa, u holda "Mahsulot yetkazib beruvchi" darhol sifatsiz mahsulotni sifatli mahsulot bilan almashtirib beradi va bu bilan bog'liq barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi

V.FORS-MAJOR HOLATLARI

5.1. Taraflarning birontasi xam boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan xolatlar (Fors-major): tabiiy ofatlar, urush e'lon qilinishi yoki boshlanishi, qamal xolati, eksport yoki import operatsiyalarini hukumat tomonidan ta'qiqlanishi bilan bog'liq holda bajarmaganliklari uchun javobgar bo'lmaydi. Fors-major xolat boshlanganligi va tugaganligi to'g'risida vakolatli organ tomonidan berilgan hujjatga asosan bir taraf ikkinchi tarafni zudlik bilan yozma ravishda ogohlantiradi.

VI. NIZONI XAL QILISH TARTIBI

6.1. Mazkur shartnoma shartlarini bajarishda va bekor qilishda, shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar qonunchilikda nazarda tutilgan, sudgacha bo'lgan tartibda hal etolmasa, ushbu nizolar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

VII. SHARTNOMA MUDDATI

7.1. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzilib, Moliya Vazirligining G'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tganidan so'ng kuchga kiradi va 31.12.2022 yilga qadar amal qiladi.

VIII. BOSHQA HOLATLAR

8.1. Shartnomaga kiritilishi lozim bo'lgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma tartibda amalga oshiriladi va tomonlar imzolab, muhrlagandan so'ng shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, yozma shaklda rasmiylashtirilib va tomonlar imzolagandan so'ng haqiqiy hisoblanadi.


8.3. Ushbu shartnomaga oid, lekin shartnomaga kiritilmasdan qolgan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari asosida hal etiladi.

X. TARAFLARNING POCHTA MANZILGOHI VA TO'LOV REKVIZITLARI

«SOTUVCHI»

«XARIDOR»

ООО " AMAL PHARM DS "	Zangiota tuman Tibbiyot birlashmasi
Manzil: г. Ташкент, М.Улутбекский район, ул.Навнихол дом 3, кв 48	Manzil: Toshkent viloyati,Zangiota tumani,Mustaqillik ko'chasi
INN: 308960328 МФО 01072	Telefon: 70 97 52 254
X/R: 20208000905450011001	
	X/R: 100022860272377073101054003
Tel: 97 336-88 -88, 97 713 -80 -80	Toshkent shaxar Bosh boshqarmasi Markaziy bank XKKM
в г.Ташкент, "ДАВР БАНК" ХАТ БАНК Мирзоулугбекский филиал.	MFO: 00014
ОКЭД 46460	INN: 200 564 954 IFUT: 86100
Korxona Bosh direktor Fayziyeva S.Q.	Boshlig K.L.Raximov





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUYVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"AMAL PHARM DS" Mas'uliyati cheklangan jamiyal

Yundlik shovusining — (a) birligi; (b) oʻrnatilgan, taʼsisiy-huquqiy shakli koʻrsatilgan hodisaga (oʻld. norm.)

"AMAL PHARM DS" MCHJ

Guido von Schumacher, *Stuttgart*

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

pro'yxat saqamli yozuv kintilcanliqi tasdiqlanadi.

1032598

15. *Guinea, oy (so'z bilan).* y

15. *Guinea, oy (so'z bilan).* y

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

302960328

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati chekdangan jamiat



Jo:lashgan joyi:

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Navoihi-3 ko'chasi, 3-uy, 48-xonadon.

Suyohrmani;

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

Reyðindan o'zbekistonni o'rganish to'liq nomi):





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI
ZANGIOTA TUMANI YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI

111800, Zangiota tumani, Eshonguzar qo‘rg‘oni, Mustaqillik ko‘chasi, 44-uy,
Tel.: (998 70) 975-33-35, el. pochta: zangiotayurmarkaz@adliya.uz

2022 yil “26” yanvar

Zangiota tumani

FH07821466

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA
MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi:

- Shartnoma.

2. Loyihaning nomi:

Zangiota tumani Tibbiyot birlashmasi va "AMAL PHARM DS" MCHJ o'rtasidagi mahsulot yetkazib berish to'g'risidagi №16-sonli shartnoma loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiqaruvchi va kiritilgan sana haqida ma‘lumot:

Zangiota tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan ishlab chiqilgan va Zangiota tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga **24.01.2022** yilda xulosa berish uchun kelib tushdi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



Sh.Karimov